

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

4/2023

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay Xaydarovich
Abdullayeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlibayeva Guljahan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtozayeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Abdimurotov Oybek Uralovich, ChDPU dotsent v.b., p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari, mustaqil ish uchun bajaradigan topshiriq turlari, murakkablik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish hamda ularga misollar ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: kredit-modul tizimi, geografiya ta'limi, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, masofaviy ta'lim platformasi, yozuvsiz xarita, kompetensiya.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Абдимуротов Ойбек Уралович, ЧГПУ д.ф.п.н. (PhD) и.о.доцента

Аннотация. В статье показаны формы организации самостоятельного обучения будущих учителей географии в условиях кредитно-модульной системы, виды заданий, которые необходимо выполнить для самостоятельной работы, их разделение на группы по уровню сложности, примеры из них.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, географическое образование, самостоятельное обучение, самостоятельная работа, дистанционная образовательная платформа, карта без записи, компетентность.

FORMS OF ORGANIZING THE INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS UNDER THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Abdimurotov Oybek Uralovich, acting associate dotcent of CSPU, PhD

Abstract. The article shows the forms of organizing the independent education of future geography teachers under the conditions of the credit-module system, the types of tasks to be performed for independent work, their division into groups according to the level of complexity, and examples of them.

Key words: credit-module system, geography education, independent education, independent work, distance education platform, map without writing, competence.

Kirish. Mamlakatimizda nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, o'qitish jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish» hamda «ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish va o'qitish usullarini takomillashtirish» kabi vazifalar belgilangan. Texnika sohasida erishilayotgan yutuqlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti ta'lim

tizimini ham pedagog-o'qituvchilar, ham talabalar uchun qulay va samarali tashkil etishning yangidan-yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Kam resurs sarflagan holda ko'proq natijaga erishish tamoyili nafaqat ta'limda, balki boshqa sohalarida ham ustuvorlik qilmoqda. Qolaversa, COVID-19 pandemiyasi davrida insoniyat bir qancha an'anaviy faoliyat turlarini masofadan amalga oshirish yo'llarini qidira boshladi, ayniqsa, ta'lim sohasida bunga har qachongidan ham kuchliroq ehtiyoj yuzaga keldi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etishni zamonning o'zi taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi qarori bilan 2020-2021-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi 35 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tgan. Kredit-modul tizimi tamoyilida ikkita bosh masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha muayyan yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlab boriladi. Mustaqil ta'lim, avvalo, geografiya o'qituvchisidan, shuningdek, talabalardan muayyan tayyorgarlik talab etadi. Mustaqil ishga talabalarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan, sekin-asta murakkablashtirib o'rgatib borish lozim. O'qituvchi talabalarni dastlab darslik matni, illyustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishlashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishlashga, spravochnik va lug'atlar, geografiya atlaslari oxiridagi nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biron geografik obyektga reja asosida tavsif berishga, konspekt tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqoridagi ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma egallangach, talabalarga boshqa, murakkabroq mustaqil ishlarni tavsiya etish mumkin. Agar talabalar mustaqil ishlarni bajarishga oid yetarli tayyorgarlikka, muayyan ko'nikma va tajribaga ega bo'lmasalar, ular mustaqil ishlarni bajarishda qiynaladilar, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi.

Geografiya darslarida talabalar quyidagi mustaqil ishlarni bajarishlari mumkin: 1. Biron mavzuga oid o'quv kinofilmni ko'rib chiqqach, ilgari egallagan bilim va tajribaga tayanib berilgan topshiriqlarga javob berish. 2. O'rganilgan bilim mazmunini aks ettiruvchi misol va xulosalarni darslik matnidan topish. 3. Darslik illyustratsiyasi, sxemalari va raqamli materiallarini tahlil qilib, topshiriqqa javob tayyorlash. Darslik matni bo'yicha hikoya rejasini tuzish. 4. Atlas kartalaridan muhim obyektlarni belgilash, kartalarni qiyoslab xulosalar chiqarish. 5. Ta'lim vositalari bilan mustaqil ishlash. Talabalar ta'lim vositalarini sinchiklab ko'rib chiqadilar, topshiriqlarga javob beradilar, xulosalar chiqaradilar. 6. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarini kuzatadilar, kuzatish natijalarini ishlab chiqadilar, tegishli xulosalar chiqaradilar. 7. Ilgari egallagan geografik bilimlar asosida obyekt va hodisalarni mustaqil qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish. Masalan, Yevrosiyo relyefi va iqlimi haqida egallagan bilimlariga tayanib, talabalar G'arbiy Yevropa bilan Sharqiy Osiyo daryolari xususiyatini, rejmini mustaqil aniqlashlari mumkin. 8. Geografik kartalar bilan olib boriladigan

mustaqil ishlar hajmi kengaytiriladi, talabalar foydalanadigan kartalar miqdori ko'paytiriladi. Tematik kartalar o'zaro qiyoslanib, xulosalar chiqariladi. 9. Yozuvsiz kartalarga tushirilgan obyekt va hodisalarning xususiyatlarini so'zlab berish talab etiladi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari oddiydan asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini murakkablik darajasiga qarab 3 guruhga ajratish mumkin: 1) Yangi fakt va hodisalarni izlashni talab etuvchi nisbatan yengil topshiriqlar. Bular «qayerda?», «qachon?», «qancha?» degan savollarga javob beruvchi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Masalan: «O'zbekistonning qayerida yirik oltin koni joylashgan», «O'zbekistonda birinchi oltin koni qachon topilgan?», «O'zbekistonda yiliga qancha oltin qazib olinadi?» 2) Geografik hodisalarning sabab-oqibatlarini belgilash va tushuntirishni talab qiluvchi nisbatan murakkabroq topshiriqlar. Bular «nima uchun?», «qanday qilib?» degan savollarga javob beruvchi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Masalan: «Nima uchun subekvtorial iqlim mintaqasi Yevrosiyo meterigida ancha shimolga kirib borgan», «O'zbekistonda tuproqlar qanday qilib birlamchi va ikkilamchi sho'rlanishga uchramoqda?» 3) Fakt va hodisalarni umumlashtirishni, qiyoslab tahlil qilishni talab etuvchi nazariy yo'nalishdagi muhim va qiyin topshiriqlar. Bunday topshiriqlar fanning nazariy tushuncha va qonuniyatlarini tushintirish orqali bajariladi. Masalan: «Qaysi hududlarga qanday ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish lozim», «Ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishda qanday omillarga e'tibor berish kerak?».

Mustaqil ishlarni o'tkazish o'rnini va metodlari o'quv materiali, topshiriqlarni qaysi maqsadda bajarilishiga qarab har xil bo'ladi. Masalan: tayanch bilimlarini qayta tiklashga oid topshiriqlar ko'pincha yangi materialni o'rganish oldidan bajariladi. Bunday topshiriqlar geografiya darsliklarida, deyarli har bir mavzu oldidan beriladi. Tayanch bilimlarni qayta tiklashga oid topshiriqlar yangi materialni o'rganish jarayonida ham bajarilishi mumkin. Geografiya darslarida talabalar juda ko'p geografik kartalar bilan ishlaydilar. Talabalarning geografik kartalarni o'qiy olishga, kartalarda geografik obyekt va hodisalarni «ko'ra olishga», kartadan bilim manbai tarzida foydalanishga o'rgatib borish lozim. Geografik obyekt va hodisalarni karta asosida ta'riflab berish uchun talabalar bilan dastlab uning rejasini ko'rib chiqish va reja punktlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma berish talab etiladi. Yuqoridagi ko'rsatmalar va tayyorgarlikdan, o'quv ish usullarini egallaganlaridan keyin talabalar mustaqil ish bajarishga kirishishlari mumkin. Mustaqil ishlarning samarasi, talabalarning tayyorgarligiga, o'qituvchining ijodiy faoliyati, mahorati, tajribasi va qamrov doirasiga bog'liq. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fanning xususiyati va har bir talabani akademik o'zlashtirish darajasi, qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil ta'limning bir qancha shakllaridan foydalaniladi.

Belgilangan maqsadga muvofiq mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari quyidagilardan iborat: a) Yangi bilimlarni o'rganishga ko'maklashuvchi mustaqil ta'lim. b) Bilimlarni amalda qo'llash va rivojlantiruvchi mustaqil ta'lim. v) Bilimlarni nazorat qilish va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mustaqil ta'lim.

Tashkil etilishiga ko'ra mustaqil ta'lim quyidagi shakllardan iborat: 1. Frontal holda. 2. Individual shaklda. 3. Guruh bilan ishlash.

Mustaqil ta'lim tabiatiga ko'ra quyidagi shakllardan iborat: 1. Nusxalash; 2. Evristik; 3. Tadqiqot.

Mustaqil ta'lim bajarilishiga ko'ra quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin: talabani bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari; an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligida talabani mustaqil ishi; elektron shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabani mustaqil ishi.

Talabaning mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin. 1. Darsga tayyorlanish – ma’ruza matnlari, video materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari bayonlarini o’rganish va konspekt qilish. 2. Axborot izlash – o’z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o’rganish. 3. FAQ (ko’p so’raladigan savollar) – o’zini qiziqitirgan muammolarni o’rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash. 4. Fan mavzulari bo’yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta’lim platformalarida fikr almashish. 5. Test yechish – o’rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash. 6. Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo’yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko’rish.

An’anaviy shakldagi o’qituvchi rahbarligida talabaning mustaqil ishi turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) masala yechish – amaliy mashg’ulot mavzusi bo’yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma taqdim etish; 2) refarat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi; 3) kollokvium – o’quv modulining nazariy qismi o’zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyishtirish; 4) esse – dolzarb mavzu bo’yicha shaxsiy fikrini tanqid, publistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; 5) taqdimot – berilgan mavzu bo’yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish; 6) keys-stadi – ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo’yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo’yicha yechim izlash; 7) ish o’yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro ijro etish orqali kasbiy ko’nikmalar orttirish; 8) glossariy – berilgan mavzu bo’yicha atamalarni qisqa izohlash; 9) guruh loyihasi – 3, 5 ta talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarish; 10) yozuvsiz xarita bilan ishlash – odatda biror mavzu bo’yicha atlas ma’lumotlaridan foydalanib yozuvsiz xaritani bo’yash ishlari; 11) kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo’yicha belgilangan uslubiy qo’llanmalar asosida bajariladigan yozma va hisob ishlari; 12) kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar) muammolari bo’yicha belgilangan uslubiy qo’llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo’llanmalar asosida yoziladigan hisobot ishlari; 13. Diplom loyihasi – mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo’yicha ishlab chiqarish korxonasini yoki uning bo’linmasini loyihalashga qaratilgan, grafik chizmalar va hisob ishlari bayon qilinadigan loyihaviy ish; 14) amaliyot hisoboti – o’tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitituv amaliyoti) bo’yicha belgilangan uslubiy qo’llanmalar asosida yoziladigan hisobot; 15) fan to’garaklarida ishtirok etish – talabaning fan to’garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko’rgazmali qurollar tayyorlash; 16) tanlovlarda ishtirok etish – talabaning o’qituvchining ilmiy rahbarligida turli tanlovlarda ishtirok etishi (talabalar startap loyihalari va h.k); 17) fan olimpiadalarida qatnashish – fanlar bo’yicha OTMlar o’rtasida o’tkazilgan olimpiadalarida ishtirok etish; 18) ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish – fanga oid ilmiy-tadqiqot mavzusi bo’yicha OTM, respublika va xalqaro miqyoslarda o’tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma’ruza qilish; 19) ilmiy tesiz va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlar to’plamlarida tezislarlar, jurnallarda tadqiqot mavzusi bo’yicha maqolalar chop qilish.

Elektron shakldagi o’qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi hisoblangan hemis.uz sayti orqali har bir OTMning masofaviy ta’lim platformasi orqali amalga oshiriladi. Elektron shakldagi o’qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) QG’A – savollarga cheklangan hajmda javob yozish; 2) chart – xarita, jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish; 3) link – internet havolalariga annotatsiya

yozish; 4) review – berilgan manbaga sharh yozish; 5. SWOT – muammoni SWOT-tahlil qilish; 6) Google Apps – Google ilovalarda guruh bo'lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash; 7) Interview – boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o'rganish; 8) LabReport – laboratoriya ishlari bo'yicha hisobot tayyorlash.

Yuqoridagi mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanib, oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimi sharoitida, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llab, talabalarni mustaqil faoliyat yuritishiga o'rgatish orqali ularda amaliy kompetensiya va kasbiy kompetentlik darajalarini rivojlantirishi lozim. Davlat ta'lim standartlarining bosh talabi ijodkor tafakkur sohibini yetishtirishdan iborat. Shunday ekan, mustaqil ta'lim uchun berilgan topshiriq talabani fikirlashga, ijodiy rivojlanishga va didaktik tafakkurining o'sishiga olib kelishi kerak. Didaktik tafakkurning shakllanishi va taraqqiy etib rivojlanishi ta'lim jarayonida amalga oshadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun talabalar fan asoslarini: bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallab olishlari talab qilinadi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga bilim berish bilan birga uni mustaqil ishlashga, mustaqil bilim olish, mustaqil kitob o'qish, erkin fikr yuritish, mavjud axborot bilan ishlashga qiziqirish lozim. Mustaqil ta'lim uchun berilgan topshiriqlarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va tezislar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. Nikadambayeva X.B. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishda elektron-o'quv-metodik ta'minotdan foydalanish metodikasi: Dis. - T., 2012. - 129 b.
2. Safarov U.X. Talabalarning bilish faolligini oshirish jarayonida EXMdan foydalanishning pedagogik asoslari (O'zbekiston tabiiy jo'g'rofiyasi kursini o'rganish misolida): Dis. - T., 1995. - 141 b.
3. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. - T.: Nodirabegim, 2021. - 242 b.
4. Vahobov H. va boshq. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish. - T., 2007. - 116 b.
5. Janzakov A.B. Umumta'lim maktablarida geografiya fanini axborot texnologiyalari vositasida o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish: Dis. - T., 2021. - 134 b.

Po'latova K.N.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar aqliy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....175

Rajabov M.D.

Gender rollarida o'ziga xoslik mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlar.....180

Dadayeva O.Yu.

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning kasbiy saralashning xorijiy tajribalari.....185

Jabbarova Z.O.

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish pedagogik muammo sifatida.....189

Ergasheva N.E.

Boshlang'ich sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi» darsligining mazmun-mohiyati hamda darslarni yangicha yondashuv asosida tashkil etish usullari.....195

Ibragimova G.T.

Iqtisodiy madaniyatning yuqori darajasi – iqtisodiy munosabatlarning mukammallik kafolati.....199

Rejapova D.A.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar sportini rivojlantirishda huquqiy yondashish jarayoni.....203

Ergashev A.R.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash – pedagogikaning dolzarb muammosi sifatida.....207

Батыралиева Ш.П.

Актуализация вопроса воспитания в непрерывном образовании.....210

Abelkosimova M.X.

Texnik mutaxassislik magistrilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.....214

Ermekebaeva X.

Talabalariga bilim berish jarayonida mustaqil ta'limning ahamiyati.....218

Buronova S.A.

Ta'lim muassasalarida didaktik tizimlar intergratsiyasidan foydalanishning indekslangan modeli.....222

Nazarqulova G.A.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....225

Ergasheva S.A.

O'quvchilarda milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari.....230

Abdullayeva S.M.

Ta'lim texnologiyasini yangilash – zamon talabi.....234

Axmadjonova M.F.

Maktab amaliyotchi psixologlarida menejerlik kompetensiyasini rivojlantirishning ayrim metodologik masalalari.....238

Саидова С.А.

Движение Худжум в Средней Азии.....242

GUMANITAR VA IJTIMOYIY FANLAR TA'LIMI

Saribayeva U.S.

Navoiyning ijodiyotida Farxod va Shirin obrazlarining gender talqini.....245

Zulxonov M.J.

Nemis tilidagi so'zlarda ma'no ko'chishning strukturalar tahlili.....250

Iliyeva L.K.

Nemis tilida akademik va texnik muloqot.....253

Davronova F.P.

Ingliz tili darslarida talabalarining faolligini oshirishda samarali foydalanishning ahamiyati.....257

Zaynieva H.Sh., Xudoyberdieva Z.X.

Raqamli texnologiyalar davrida nemis tilini onlayn o'qitishda yuzaga keladigan bir qator kamchiliklar xususida.....261

Бабаева З.С.

Самостоятельная работа в учебно-познавательной деятельности: дидактический аспект.....266

Toshmatov A.S.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining yozma nutq kompetentsiyasini rivojlantirish holati va muammolari.....270

Каримова З.О.

Понятие страноведческой и лингвокультурной компетенции в обучении РКИ.....275

TABIYIY FANLAR TA'LIMI

Абдукамалов Б.А.

Использование принципов преемственности и последовательности при переходе от модели Бора к точно решаемым задачам квантовой механики.....279

Bekchonova Sh.B.

Oliy ta'limda kiberpedagogikaning asosiy xususiyatlari.....284

Abdimurotov O.U.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish shakllari.....289

Jo'rayev M.M., Botirov M.M.

Dasturlashni umumiylik va prinsiplarning turilligi asosida o'qituvchining xususiyatlari.....294

Рузиева З.С.

Проектирование уроков «Технология» в начальном образовании.....299

Bo'riboyeva D.N.

Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi.....303

Ibadullayev A.A.

Fizikaning mexanika bo'limini o'qitish jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....307

Usmonova M.S.

Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish metodikasi.....312

Намазова Р.Д.

Достоинства и приоритеты модульного обучения в инновационном образовании.....316

Yusufxodjayeva F.M.

Texnologiya darslarida o'quvchilarga gazlamaga ishlov berish texnologiyasini o'rgatish.....319

Axmedova Yu.Q.

«Umumiy yer bilimi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tamoyillari, shakl va vositasi.....323

Esanmurodova N.Sh.

Bakterial asosida sellulozani o'rganish.....327

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR

TA'LIMI

Lutfullayev A.Q.

Musiqiy ta'lim va ta'lim-tarbiyaning uyg'unligi.....331

Режаметова Н.И.

Методы совершенствования педагогической деятельности в дошкольном музыкальном образовании и воспитании.....335

Shamuratova B.Yu.

Abu Ali ibn Sinoning sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaga oid qarashlari.....338